

**BO‘LAJAK TASVIRIY SAN”AT O‘QITUVCHILARINING AMALIY
SAN’AT ORQALI BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**

Oteniyazov Allaniyaz Ajiniyazovich
Ajiniyoz nomidagi NDPI magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tasviriy san’at o‘qituvchilarining amaliy bezak san’ati orqali o‘quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, boshqa fanlarni o‘zlashtirish jarayonida kreativ fikrlashga, dars jarayonida badiiy-estetik tafakkur va emotsiional sezgirlikni o‘sirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan bilimlarni egallashi haqida yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tasviriy san’at o‘qituvchi, badiiy-estetik kompetentlik, grafik madaniyat, ijodiy mahorat, STEAM ta’limi*

O‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg‘unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o‘sirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiq etishga o‘rgatish tasviriy san’at orqali amalga oshiriladi, va shuningdek, o‘quvchilarni ma’naviy, badiiy, ahloqiy, grafik madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o‘sirishda, kasbhunarga yo‘naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish shu fanlar tarkibida olib boriladi.

Yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma’lumotlar oqimining o‘sib borishi hayotning barcha jabhalarida to‘rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o‘zgarmoqda. Kundalik hayotni ilmiytadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta’limning integrativ yondashuvini STEAM ta’limi joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta’lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan. Bugungi kunda butun dunyo maktab o‘quvchilarini robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko‘plab yangiliklar qiziqtirmoqda.

Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko‘rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash va kompenesiyalarni shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu o‘rinda nafaqat bilish va uddalay olish balki, tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi. STEAM-ta’limi DTS asosida beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatish orqali sinfdagi dars mashg‘ulotlari va mакtabdan tashqari ta’lim jarayonida o‘quvchilarining o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarib ko‘rish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tasviriy san’atni o‘qitishda uzviylik va uzlusizlikni ta’minalash orqali o‘quvchilarda madaniyat, qadriyatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantiriladi.

- darsliklarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarda bilishga qiziqish, ishtiyoq va xoxishni hosil qiladigan o‘yin va mashqlar, art-texnologiyalarni aks ettirish;
- o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikda ishlash, mazkur fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslanib o‘qitishni takomillashtirish;
- Tasviriy san’atni o‘qitishda ilg‘or xorijiy, jumladan, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi Osiyoning rivojlangan davlatlari tajribalarini hisobga olish;
- mazkur fanni o‘qitishda ko‘proq amaliyotga shuningdek, badiiy-estetik va ma’naviy-axloqiy fazilatlar qadriyat sifatida anglanishiga e’tibor qaratish;
- o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunida tizimlilik, uzviylik va uzlusizlik tamoyillariga riosa etish, mavzularda ketma-ketlik va izchillikni inobatga olish;
- mavzularni o‘zlashtirish shaxs rivojining kognitiv (bilish) sohasiga yo‘naltirilganligi bilan birga, kreativlik, ijtimoiy-emotsional va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratish;
- mazkur fanlarda o‘qitiladigan mavzularni fanlar va mavzulararo integratsiyasiga e’tibor qaratish;
- darsliklarda o‘quvchilarni faollashtirishga doir savol va o‘quv topshiriqlari berilishi bilan birga, refleksiv, o‘zini o‘zi rivojlantirish va baholash ta’lim texnologiyalari, badiiy-estetik tahlilga asoslangan o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatiga mos tashxis vositalardan samarali foydalanish;
- mavzularni izchillikda tizimlashtirish va juda ilmiy atamalar ko‘p qo‘llanilishini soddalashtirish zarur.

Amaliy bezak san’ati orqali o‘quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, boshqa fanlarni o‘zlashtirish jarayonida kreativ fikrlashga, dars jarayonida badiiy-

estetik tafakkur va emotsiyal sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashga xizmat qiladi.

O'quvchilarda san'at asarlarini ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglash, idrok etish va baholash, ularga estetik munosabat bilidirish malakalarini tarkib toptirish;

- atrof-muhit, borliqdagi va san'at asarlaridagi estetik holatlarni anglashga oid bilim va malakalarini shakllantirish;

- o'quvchilarni tasviriy va amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizayn san'ati namunalari bilan tanishtirish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariy bilim va amaliy malakalarini tarbiyalash;

- o'quvchilarni tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik), janrlari (portret, natyurmort, manzara va b.), tasviriy san'atning qonuniyatları (kompanovka, perspektiva, kompozitsiya, ritm, faktura, yorug' va soya va h.k.), ifodaviy vositalari (rang surtmasi, chiziq, faktura va b.) bilan tanishtirish orqali ularda tasvirlash malakalari, ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish;

- tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilim va malakalarini tarkib toptirish vositasida barkamol shaxs tarbiyasining muhim komponentlari – o'quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tafakkur va tasviriy savodxonlikni shakllantirish.

Tasviriy san'at (grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik), amaliy bezak va milliy hunarmandchilik, arxitektura va dizayn, kompyuter grafikasi va animatsiya, fotografiya, sintetik san'at (teatr va kino) sohasidagi badiiy tajribani rivojlantirish;

- San'at asarlari bilan aloqa qilish ehtiyojini rivojlantirish, semantik, estetik va shaxsan muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy madaniyat an'analariga faol munosabatni shakllantirish.

Demak, badiiy-estetik tarbiya bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining amaliy bezak san'ati darslarida ma'naviy kamolotida muhim o'rinn tutuvchi omillardan biri bo'lib, ularning xoxish - istagi tufayli emas, jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir. Badiiy-estetik tarbiyaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Bugungi davrda ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining borliqdagi go'zalikka, nafosat olamiga yaqinlashtirish juda muhim pedagogik vazifalardandir. Chunki badiiy-estetik tarbiya ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga tegishlidir. Bu orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining ijodkorligini oshirish, tasvirlash layoqatini rivojlantirish va estetik munosabatga kirishish qobiliyatini o'stirish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'quvchilarning tasvirlash tafakkuri, sa'natni tushunishi va unga bo'lgan estetik didini o'sishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. R.Xasanov «Maktabda tasviriy sańatni o‘qitish metodikasi» O‘zR FA «Fan» nashriyoti.2004 yil.
2. R.Xasanov. «Tasviriy sańat asoslari» 2009 yil.
3. R.Xasanov. «Tasviriy sańatdan sinfdan tashqari ishlar». «Ishonch nashr savdo»MChJ nashriyoti. 2017 yil.
4. R.Xalilov, Risunok, Izdatel’stvo «Navro‘z» 2013